INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY ASOSLARI VA XALQARO TAJRIBA

Xudayberdiyeva Muslima
https://doi.org/10.5281/zenodo.20023664

Annotatsiya: Mazkur ishda inklyuziv ta'limning huquqiy asoslari va xalqaro tajribasi qisqacha tahlil qilinadi. Unda barcha bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishning ahamiyati yoritilib, O'bekston hamda xalqaro tajriba asosida inklyuziv ta'limning rivojlanish yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Inkluziv ta'lim, imkoniyati cheklangan, huquqiy asos, nogironligi.

KIRISH: Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim sharoitida o'qitishning mohiyati, inklyuziv ta'limni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari,pedagogik-psixologik aspektlari, inkluziv ta'limda xorij tajribasidan foydalanish yoritib berilgan.

Shuningdek, inklyuziv ta'lim sharoitida eshitishida, ko'rishida, aqliy va psixik rivojlanishida, nutqida, tayanch-harakat a'zolarida, autistik sohasida muammolari bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan davr talabiga mos pedagogik texnologiyalar keltirilgan.

MAQSAD: Inklyuziv ta'lim jarayonida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilar sog'lom bolalar bilan birga bir maktabda, sinfda o'qitiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar maktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab alohida qo'llabquvvatlashga muhtoj bo'ladilar. Bunday qo'llab-quvvatlash ularning butun hayotlari davomida zarur hisoblanadi. Shuning uchun ham maktab ta'limining dastlabki bo'g'inlaridan boshlab, bunday o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishlari uchun qulay shartsharoit yaratish talab etiladi. Ushbu maqolaning maqsadi - jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan maxsus yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim-tarbiya berish, ularning sog'lom bolalar qatoridan o'rin olib o'z qobiliyati, imkoniyatlarini ko'rsata olishiga, ma'naviy kamol topishiga qaratilgan chora-tadbirlar va ularni huquqiy asosini o'rganib chiqish.

Shuningdek, ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyati ochib berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib boriladigan korreksion tarbiyaviy ishlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirib borish zamon talabidir. Xorijda inklyuziv ta'limni joriy qilish tajribasining tahlili ko'rsatdiki, uning rivojlanishi turli mamlakatlarda nogiron bolalarning ta'lim olish huquqlarini amalga oshirishga, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va manfaatdor doiralarda inklyuziyani tashkil qilish muammolarini muhokama qilishga yo'naltirilgan fuqarolik munosabatining shakllanishidan boshlangan.

Juda ko'plab davlatlarda maxsus yordamga muhtoj bolalarni yuqori natijali kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni to'laligicha yo'lga qo'yish maqsadida umumta'lim maktablarida ta'lim berish ilmiy va amaliy davlat siyosati rejasiga kiritildi. "Ta'lim tizimi shunday bo'lishi keraki deb yozadi L.S.Vigotskiyning fikricha nuqsonli bolaning tarbiyalashning vazifasi boladagi nuqsonlarni Kompensatsiya qilish va uning hayotga integratsiyasini ta'minlash deb xisoblaydi va buning uchun shunday ta'lim tizimini yaratish kerakki maxsus yordamga muxtoj bola O'qish jarayonida xar tomonlama rivojlansin. Ya'ni, L.S. Vigotskiy umumiy va maxsus Ta'limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini tashkil etish-maxsus yordamga muhtoj bolalarni Umumta'lim tizimida o'qitishni e'tirof etgan.

Inklyuziv maktabning maqsadi hamma o‘quvchilarga ijtimoiy hayotda, jamoada va jamiyatda faol ishtirok etishga imkon yaratib berish va jamiyatning bir a’zosi sifatida birbirlariga yordam berish, shu bilan birga to‘laqonli aloqalarni ta’minlashdan iborat. Bu Shunday bebaho qat’iy talabki, bunda hamma maktab va jamiyat a’zolari bir-biri bilan Bog‘liq va o‘quvchilar nafaqat bir-birlari bilan ta’lim jarayonida o‘zaro aloqada bo‘ladilar, Balki auditoriyalardagi qabul qilinadigan jarayonlarda ham bir-birlarini qo‘llabquvvatlaydilar.

XULOSA: Imkoniyati cheklangan bolalarning o‘z oilasida yashab, mehr va e’tibor muhitida ulg‘ayishi ularning har tomonlama rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Shu sababli inklyuziv ta’lim bugungi kunda ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu yondashuvga ko‘ra, har bir bola, uning jismoniy yoki aqliy imkoniyatlaridan qat’i nazar, umumiy ta’lim muassasalarida o‘qish huquqiga ega. Natijada bola o‘z oilasidan ajralmaydi, ota-ona mehrini his etgan holda, o‘z mahallasidagi tengdoshlari bilan birga ta’lim oladi.

Inklyuziv ta’lim nafaqat bilim berish, balki bolani jamiyatga moslashtirish, ijtimoiy hayotga faol jalb etish vazifasini ham bajaradi. Bunday muhitda o‘qigan bolalar o‘zaro muloqot qilishni o‘rganadi, bir-birini tushunishga harakat qiladi va jamiyatda bag‘rikenglik muhiti shakllanadi. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan bolalar o‘zlarini jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida his etadi, bu esa ularning ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, inklyuziv ta’lim tizimi ancha mukammal yo‘lga qo‘yilganini ko‘rish mumkin. Masalan, Finlandiyada barcha bolalar deyarli bir xil maktablarda ta’lim oladi. U yerda har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari inobatga olinadi, maxsus pedagoglar va psixologlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Ta’lim jarayoni moslashuvchan bo‘lib, bolaga qulay sharoit yaratishga qaratilgan.

Taqqoslaganda, inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi barcha davlatlarda bir xil — ya’ni har bir bolaga teng imkoniyat yaratishdir. Biroq amaliyotda farqlar mavjud. Ayrim joylarda bu tizim hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa, boshqa davlatlarda u mukammal darajada ishlaydi. Bu farq asosan moddiy-texnik baza, malakali kadrlar va jamiyatdagi munosabat bilan bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim bolalarning huquqlarini ta’minlash, ularni jamiyatga moslashtirish va teng imkoniyatlar yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir davlat bu yo‘nalishda o‘z sharoitidan kelib chiqib rivojlanayotgan bo‘lsa-da, umumiy maqsad — barcha bolalarga sifatli ta’lim berish va ularni jamiyatning faol a’zosi etib tarbiyalashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida"gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori.
3. "Ilk qadam" maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi. T.:2022.
4. Sodiqova Sh.A. " Maktabgacha pedagogika". T.: "Tafakkur sarchashmalari", 2018.
5. Sodiqova Sh.A. " Maktabgacha pedagogika". T.: "Tafakkur sarchashmalari", 2018.
6. Xaydarova S "Inkluziv ta’limda psixologik xizmat". Uslubiy qo‘llanma.